«TASDIQLAYMAN»

Bosh direktorning marketing
va sotuvlar bo'yich o'rinbosari
«UMS» MChJ

_____L.Yu. Filatova

«____» _____2025

TEXNIK TOPSHIRIQ
«UMS» MChJ reklama qurilmalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish

"UMS" MChJ ehtiyojlari uchun

Toshkent – 2025

Reklama qurilmalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarish uchun Texnik topshiriq

1. **Maqsad:**
   "UMS" MCHJga tegishli bo'lgan reklama konstruksiyalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish, shuningdek o'rnatilgan mahsulotlarga kafolatli xizmat ko'rsatishni amalga oshirish.

   Xizmat ko'rsatish muddati — 12 oy.

   - LOT№1 – Toshkent shahri
   - LOT №2 – Toshkent viloyati
   - LOT №3 – Farg'ona viloyati
   - LOT №4 – Andijon viloyati
   - LOT №5 – Samarqand viloyati
   - LOT №6 – Navoiy viloyati
   - LOT №7 – Buxoro viloyati
   - LOT №8 – Surxondaryo viloyati
   - LOT №9 – Qoraqalpog'iston Respublikasi

2. **Reklama qurilmalar o'lchami va turi:**

LOT №	Reklama qurilmalarini joylashgan joyi.	TRQ Turi	O'lchami (m)
1	Toshkent shahri	Billbordlar	6m x 3m
		Bayroqsimon qurilmalar	4 m x 2m
		Tom usti qurilmalar	turli o'lchamda
		Svetodiod ekranlar	6m x 3m
		Brandmauerlar	turli o'lchamda
2	Toshkent viloyati	Billbordlar	6m x 3m
3	Farg'ona viloyati	Billbordlar	6m x 3m
4	Andijon viloyati	Billbordlar	6m x 3m
5	Samarqand viloyati	Billbordlar	6m x 3m
		Nostandart qurilmalar	24m x 6m
6	Navoiy viloyati	Billbordlar	6m x 3m
7	Buxoro viloyati	Billbordlar	6m x 3m
8	Surxondaryo viloyati	Billbordlar	6m x 3m
9	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Billbordlar	6m x 3m

Qurilmalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish ishlarini amalga oshirish bo'yicha texnik talablar.

3. **Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar.**

   O'xshash ishlarni bajarish bo'yicha ish tajribasi

4. **Reklama qurilmalarini ta'mirlashda materiallar sifatiga qo'yiladigan talablar:**

• Faqat yuqori sifatli metall ishlatish.
• M 400 dan past bo'lmagan markali tsement ishlatish.
• Kengligi kamida 50 mm, tokcha (polka) qalinligi kamida 4 mm bo'lgan burchak temir ishlatish.
• Asos plitasi varag'ining qalinligi kamida 20 mm bo'lishi kerak.
• Asos plitasi varag'ining o'lchamlari kamida 700 x 700 mm bo'lishi kerak.
• Qiya tirgaklar (trubostoykadan asos plitasigacha) qalinligi kamida 10 mm bo'lishi kerak.
• Qiya tirgaklar soni kamida 4 dona bo'lishi kerak.
• Qiya tirgaklarning o'lchamlari (trubostoykadan asos plitasigacha) kamida: balandligi 300 mm, uzunligi 200 mm bo'lishi kerak.
• Anker boltlarining diametri kamida 36 mm bo'lishi kerak.
• LED ekranlar uchun anker boltlarining diametri kamida 42 mm bo'lishi kerak.
• Reklama qurilma ekrani metall varag'ining qalinligi kamida 0,8 mm bo'lishi kerak.
• Billbord ekrani o'lchamlari quyidagicha bo'lishi kerak: 6000 mm x 3000 mm.
• Billbordning yer sathidan yuqori nuqtasigacha bo'lgan balandligi: 8000 mm.
• Billbord trubostoykasining yer sathidan ekranning boshlanishigacha bo'lgan balandligi: 5000 mm.
• Fundament uchun faqat armaturalangan beton ishlatish, o'lchamlari kamida: chuqurligi – 1000 mm, uzunligi – 2000 mm, eni – 1500 mm (3 m^3).
• Trubostoyka sifatida faqat qalin devorli, to'g'ri chokli po'lat truba ishlatish, uzunligi 8 metr, diametri kamida 273 mm, devor qalinligi kamida 7 mm bo'lishi kerak.
• Reklama materiali lyuverslari uchun ilgaklar oralig'i: har 250 mm da bittadan.

5. **Ishlar sifatiga qo'yiladigan talablar**:

• Fundament ankerlari orasidagi minimal masofa kamida 500 mm bo'lishi kerak.
• ANO-4 markali elektrodlar ishlatish.
• Bo'yash jarayonida faqat kulrang rangdagi antikorroziyali emal ishlatish.
• Qurilmalarni kamida 2 (ikki) qatlamda bo'yash kerak.
• Anker boltlarini fundamentning armotarmog'iga payvandlab mahkamlash majburiydir.
• Anker bolt gaykalariga qo'shimcha ravishda kontrgaykalar o'rnatish majburiydir.
• Elektromontaj ishlariga faqat tegishli ruxsat guruhi bo'lgan malakali mutaxassislarni jalb etish kerak.
• Ishlarning qiymati barcha sarf materiallarini o'z ichiga olishi kerak.
• Ish kuni yakunida yoki barcha ish hajmi to'liq bajarilgandan so'ng, Pudratchi bajarilgan ishlardan keyin hududni tozalash, chiqindilarni olib chiqish va ish jarayonida yuzaga kelgan boshqa oqibatlarni bartaraf etish majburiyatini oladi. Buyurtmachi, ushbu bandda nazarda tutilgan majburiyatlar to'liq bajarilmaguncha, ish natijalarini qabul qilmaslik huquqiga ega.

6. **Bajarilgan ishlar uchun kafolat bo'yicha talablar**.

Bajarilgan barcha ishlar uchun kafolat muddati ishlar topshirilgan paytdan boshlab kamida 12 oy bo'lishi kerak.

7. **Xavfsizlikka qo'yiladigan talablar.**

Ishlar Mehnat xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Balandlikda bajariladigan ishlar maxsus tayyorgarlikka ega, tegishli ruxsatnomasi bo'lgan xodimlar tomonidan, balandlikda xavfsiz ishlash uchun mo'ljallangan jihozlardan foydalangan holda bajarilishi lozim.

Ishlar olib borilayotgan vaqt davomida ish joyi maxsus vositalar bilan o'ralgan bo'lishi kerak..

Ishlar bajarilishi davomida xodimlarning xavfsizligi uchun mas'uliyat Pudratchiga yuklatiladi.

8. Ta'mirlash ishlarini miqdori, davriyligi, muddati va bajarish joyiga qo'yiladigan talablar.

Ishlarning bajarish joyi, miqdori va muddati tegishli buyurtmada ko'rsatiladi

Jihozlar va materiallarni ish joyiga yetkazish pudratchi tomonidan amalga oshiriladi.

Buyurtmada ko'rsatilgan ishlar oldindan to'lov olinganidan so'ng, kursatilgan muddat ichida bajarilishi kerak, biroq bu muddat 15 ish kunidan oshmasligi lozim.

9. Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati.

№	Qisqartmalar	Qisqartmaning to'liq shakli
1	*TRQ*	*Tashqi reklama qurilmasi*

10. Ilovalar ro'yxati.

№	Ilova nomi	Varaqlar soni
1	Reklama qurilmalar chizmasi	1
2	Ishlar ro'yxati va hajmi	1

Tuzuvchi:

Reklama ishlab chiqarish bo'limi eksperti _____ Yu.N. Yuldashev

Kelishilgan:

Reklama ishlab chiqarish bo'limi boshlig'i _____ M.B. Mirkarimov

Marketing bo'yicha director _____ Ye.V. Lim

«Billbord» reklama qurilma chizmasi



«Svetodiod ekran» reklama qurilma chizmasi



«Branmauer» reklama qurilma chizmasi



«Tom usti » reclama qurilma chizmasi